
TURVAT MFYDAGI 13-UMUMTA'LIM MAKTABIDA 540 O'RINLI QO'SHIMCHA O'QUV BINOSI BARPO ETILMOQDA

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari hamda mahalla faollari ishtirokida maktabning yangi o'quv binosi qurilishiga g'isht qo'yildi.

Endilik bu yerda 2024 yilning Investisiya dasturi asosida 540 o'rinli 3 qavatli qo'shimcha o'quv binosi bunyod etiladi. Qurilish-ta'mirlash ishlariga 4 milliard 500 million so'm mablag' ajratildi.

"Toshloq qurilish va ta'mirlash" xususiy korxonasi tomonidan bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi.

Maktabda tez va sifatli ta'mirlash ishlaridan so'ng zamonaviy, barcha sharoitlarga ega yangi o'quv binosi yoshlar ihtiyoriga topshiriladi.

2024-07-08 17:55:26